

---

Bo'stonlik yoshlarning qiziqishlari va xoxish-istaklari ro'yobga chiqdi  
Qo'shtepa tumanida "Og'ir" toifadagi yoshlarga ularning og'irini yengil qilish  
maqsadida, biriktirilgan rahbarlar tomonidan turli yo'nalishlarda yordamlar ko'rsatib  
kelinmoqda.

Jumladan, "Bo'ston" mahallasidagi 26 nafar yoshlarga biriktirilgan viloyat maktabgacha  
va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i Sh.Dolimov tomonidan ham uchrashuvlar  
o'tkazib kelinmoqda.

O'tkazilgan uchrashuvlar hamda suhbatlar natijasiga ko'ra yordam so'ragan yoshlarga  
ularning qiziqishlari va xoxish-istaklaridan kelib chiqib, ularning 2 nafariga ish  
faoliyatlarini yo'lga qo'yishlari uchun skuter va mehnat qurollari jamlanmasi topshirildi.

Tuman MMTBda bo'lib o'tgan tadbirda viloyat maktabgacha va maktab ta'limi  
boshqarmasi boshlig'i Sh.Dolimov, tuman hokmining o'rinbosari A.Yusupov va  
bo'limning mas'ullari ishtirok etishdi.



2024-09-20 09:51:13